

Abduraximova Muxlisa Axatjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO‘TAU 2-kurs magistiranti

Ilmiy rahbar: **Rashid Zohidov**,

filologiya fanlari doktori professor

MUMTOZ ASARLARGA TUZILGAN ZAMONAVIY LUG‘ATLARNING TAHЛИLI

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Mumtoz asarlarga tuzilgan zamonaviy lug‘atlar, jumladan, Porso Shamsiyev va Vahob Rahmon tomonidan tuzilgan lug‘atlar haqida qisqacha ma’lumotlar berib o‘tildi. Bu asarlarning Navoiy va boshqa mumtoz ijodkorlarning asarlarini o‘rganish, anglashdagi o‘rni va ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Abstract: Through this article, brief information was given about modern dictionaries compiled for Mumtaz works, including dictionaries compiled by Porso Shamsiyev and Wahab Rahman. We will dwell on the role and importance of these works in studying and understanding the works of Navoi and other classical artists.

Kalit so’zlar: lug‘atlar, ilmiy ko‘rsatkichlar, bosh so’z, tavtologik usul, tushuntirish usuli, aralash usul,

Mumtoz asarlarni, jumladan, Navoiy asarlarni tushunishda, uni turli jihatdan o‘rganishda lug‘atlarning o‘rni katta. Asar qanchalik qadimiylar bo‘lsa uni tushunish, matn mazmuni anglash shunchalik qiyinlashib boradi, chunki matn tarkibidagi ba’zi so’zlar hozirgi zamonda umuman ishlatilmasligi yoki butunlay boshqa ma’noda ishlatilishi mumkin. Mumtoz asarlar mohiyatini anglashda bizga ilmiy ko‘rsatkichlar yordam beradi. Ilmiy ko‘rsatkichlar tarkibiga matndagi so’zlarning izohli lug‘ati, unda uchragan shaxslar haqidagi ma’lumot, joy nomlari tahlili kiradi, o’sha davr ijtimoiy-siyosiy hayot tarzi kabi ma’lumotlar kiradi.

Lug‘atlar, shuningdek, bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi: muayyan voqe-a-hodisa haqida o‘quvchiga ma’lumot beradi; uni o‘z ona tilidagi va o‘zga tillardagi so’zlar bilan tanishtiradi; tilni, uning lug‘at tarkibini takomillashtirish, me’yor- lashtirish va tartibga solishga yordam beradi.¹

Hozirgi kunga qadar mumtoz meroslarimizni yaxshiroq tushunishimizga ko‘maklashadigan juda ko‘p lug‘atlar tuzilgan , jumladan “Abushqa”, “Lug‘ati turkiy”, “Lug‘ati Navoiy”, “Badoye ul-lug‘t”, “Sangloh” lugatlaridir.

Tilimizdagagi o‘zgarishlar, ba’zi so’zlarning iste’moldan chiqib ketishi, yangi so’zlarning kirib kelishi mumtoz asarlarimiz uchun lug‘atlarni shakllantirishni talab qiladi. Shuning uchun ham, hozirgi kunga qadar qadimiylar asarlarimiz uchun lug‘at tartib qilish davom etib kelmoqda. Quyida shu asarlardan ikkita namuna ko‘rib o‘tamiz.

Ustoz Porso Shamsiyev tomonidan tuzilgan “Navoiy asarlari lug‘ati” hozirgi zamonaviy adabiyotimiz uchun qimmatli qo’llanma bo‘lib xizmat qiladi. Asar 1972- yilda, G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti tomonidan nashrdan chiqqan bo‘lib, o’n besh tomli

Abduvahhob Madvaliyev

Alisher Navoiy asarlariga ilova qilingan. Asar filologiya fanlari doktori professor Sobirjon Ibrohimov hamkorligida nashr qilingan.

Asar muharriri S.Mutalibov.

Lug‘atning tuzilishiga keladigan bo‘lsak, asar jami 784 betdan iborat bo‘lib, o‘z ichiga sahifa, lug‘atda ishlatilgan qisqartmalar, alifbo tartibi(krill hamda eski o‘zbek alifbosi), muqaddima, lug‘at qismi, va muhim tuzatishlardan iborat. Asar muqaddimasida, uning yozilish sababi, boshqa mumtoz lug‘atlar haqidagi fikrlar, va ularning bu lug‘atdan farqli jihatlari, Navoiy ijodini o‘rganish tarixi, “Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at”dan farqi, asarda so‘zlarni tushuntirish usullari keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra, so‘zlar uch xil usulda izohlangan.

1.Tushuntirish usuli. Bu usulda so‘zning aynan tarjimasi emas, ma’nosi izohlanadi.

TASAVVUR تصویر – a. Bir narsaning yoki hodisaning suratini o‘ylab, uni zehnda gavdalantirish, xayolga keltirish.

2. Tavtologik usul. Bu usulda bosh so‘zning ma’nosi o‘sha so‘zning o‘xshashlari, sinonimlarini keltirish, ya’ni tarjima qilish yo‘li bilan izohlanadi.

TAVON. توان –f. Quvvat, toqat, kuch, qudrat, chidam.

3. Aralash usul. Bu usulda yuqoridagi har ikkisidan ham foydalaniladi, ya’ni ham sinonimi ham so‘zning ma’nosi izohlanadi.

Asarda bosh so‘zni izohlash quyidagi tartibda keladi. Avval bosh so‘z, bu so‘zning eski o‘zbek alifbosidagi variant, qisqartma so‘zning izohi va bu so‘zga misol. Lug‘at *AAZZ* اازز so‘zining izohidan boshlanib, *HUQQALIG'* حُقْقَة لِيْغ so‘zining izohi bilan yakunlangan.

Mumtoz asarlarga ishlangan lug‘atlardan yana biri Vahob Rahmon tomonidan tartib berilgan “Mumtoz asarlar lug‘atidir”. Asar 2019- yili nashrdan chiqarilgan bo‘lib jami 544 betdan iborat. Lug‘at krill alifbosi tartibida berilgan.Porso Shamsiyevning “Navoiy asarlari lug‘ati” dan farqli ravishda asarda bosh so‘zning eski o‘zbek alifbosida yozilgan variant mavjud emas. Lug‘at avval bosh so‘z keyin uning ma’nosi va asardan misol sifatida parcha keltirilgan tartibda yozilgan. Asarda, asosan, Navoiy va Bobur, Gulxaniy, Hofiz Xorazmiy, Munis, Ogahiy, Haydar Xorazmiy, Avaz O’tar , Muqimiyy, Huvaydo, Sa’diy, Ahnad Yugnakiy, Rabg’uziylar asarlaridan olingan so‘zlar misol sifatida keltirilgan. Lug‘at *A* harfiga izoh bilan boshlanib, *Huy chekmak* so‘zini izohlash bilan yakunlanadi.

Vahob Rahmon lug‘ati nisbatan sodda shaklda berilgan bo‘lib, bosh so‘z uning ma’nosi va asardan shu so‘z qatnashgan misol tartibida kelgan. Porso Shamsiyevda esa ozgina murakkabroq shaklda, chunki leksemadan keyin uning eski o‘zbek yozuvidagi varianti ham keltirib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. Toshkent, 2017.
2. Vahob Rahmon “Mumtoz asarlar lug‘ati”//Akademnashr—Toshkent, 2019.
3. Porso SHamsiyev “Navoiy asarlari lug‘ati”//G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti – Toshkent,1972
4. <https://library.ziyonet.uz/>